

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

Second, writing curricula must explicitly teach AI literacy, including prompt engineering, critical evaluation, and ethical use. Third, professional development programs must equip EFL educators with practical skills for integrating AI as a pedagogical partner rather than a replacement.

Conclusion. The integration of Artificial Intelligence into EFL writing instruction represents a significant pedagogical opportunity, but one that requires careful, principled implementation. Empirical evidence clearly demonstrates that AI can enhance grammatical accuracy, lexical diversity, revision quality, and learner autonomy when used as a complementary tool. For EFL learners in higher education, AI is a powerful assistant, but the writer’s authentic voice, critical judgment, and cultural awareness must remain distinctly human. Institutions, curriculum developers, and educators must collaborate to harness AI’s strengths while actively mitigating its limitations, ensuring that technology serves not supplants the development of genuine, transferable writing competence.

References

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
2. Ferris, D. R. (2019). Treatment of Error in Second Language Student Writing (2nd ed.). University of Michigan Press.
3. Godwin-Jones, R. (2022). Partnering with AI: Intelligent writing assistance and instructed language learning. *Language Learning & Technology*, 26(2), 5–24.
4. Lee, S., Jeon, J., & Choe, H. (2023). Generative AI in EFL writing: Learner perceptions and self-regulated learning strategies. *Journal of Second Language Writing*, 61, 101–118.
5. Warschauer, M., & Ware, P. (2006). Automated writing evaluation: Defining the classroom research agenda. *Language Teaching Research*, 10(2), 157–180.
6. Zhang, Z., & Hyland, K. (2022). Fostering student engagement with feedback: An integrated approach. *Journal of Second Language Writing*, 55, 100–115.

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA GENDER ASIMMETRIYASINING LINGVOKULTUROLOGIK IFODALANISHI VA MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGI

Anvarova Sabohat Shonazar qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

sabohatanvarova96@gmail.com +99899-960-27-25

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisida ayol va erkak konseptlarini verballashtiruvchi paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari, milliy mentalitetni aks ettiruvchi gender stereotiplari hamda ularning madaniy o'rni o'rganiladi. O'zbek paremiyalarida jamoaviy, ingliz paremiyalarida esa individualistik qadriyatlar asosida shakllangan gender obrazlari qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi.

АННОТАЦИЯ. В данном тезисе изучаются лингвокультурологические особенности паремиологических единиц, вербализующих концепты женщины и мужчины, гендерные стереотипы, отражающие национальный менталитет, и их место в системе культуры. Проводится сравнительно-типологический анализ гендерных образов, сформированных на основе коллективистских ценностей в узбекских паремиях и индивидуалистических в английских.

ANNOTATION. This thesis examines the linguocultural features of paremiological units verbalizing the concepts of woman and man, gender stereotypes reflecting national mentality, and their place in the system of culture. A comparative-typological analysis of gender images formed on the basis of collectivist values in Uzbek proverbs and individualist values in English proverbs is provided.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, gender asimmetriyasi, paremiologiya, milliy mentalitet, madaniy kod, gender stereotipi, o'zbek maqollari, ingliz maqollari.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, гендерная асимметрия, паремиология, национальный менталитет, культурный код, гендерный стереотип, узбекские пословицы, английские пословицы.*

Keywords: *linguoculturology, gender asymmetry, paremiology, national mentality, cultural code, gender stereotype, Uzbek proverbs, English proverbs.*

KIRISH

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat hozirgi zamon tilshunosligining eng dolzarb yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. V.A. Maslovaning ta'rifiga ko'ra, lingvokulturologiya tilning madaniyat bilan o'zaro ta'sirini, madaniy ma'lumotlarning til birliklarida qanday ifodalanishini o'rganuvchi tilshunoslik sohasidir. V.N. Teliyaning ta'kidlashicha, til birliklari ayniqsa frazeologik va paremiologik birliklar milliy-madaniy mazmunni to'la hajmda saqlovchi va avloddan avlodga uzatuvchi «madaniy xotira» vazifasini bajaradi.

W. Mieder paremiologiyaga doir tadqiqotlarida maqollarni «til va madaniyatning ajralmas bo'lagi, muayyan jamiyatdagi qadriyatlar tizimining lisoniy aksi» sifatida tavsiflaydi. Ushbu ta'rif nafaqat maqollarning madaniy-lingvistik tabiatini, balki ularning gender ideologiyasini shakllantirish va mustahkamlashdagi rolini ham to'liq ochib beradi.

LINGVOKULTUROLOGIYA VA GENDER: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Lingvokulturologiyaning tadqiqot usullari gender asimmetriyasini o'rganishda alohida samaradorlik ko'rsatadi. S.G. Vorkachev ta'riflaganidek, madaniy konsept bu «milliy madaniyatning o'zagi, unda jamiyatning dunyoqarashi, ideallar tizimi va baholash mezonlari o'z aksini topadi. «Ayol» va «erkak» konseptlari aynan shu madaniy konseptlar qatoriga kiradi: ular har bir xalqning o'z tarixi, dini, ijtimoiy tuzimi va estetik qarashlari asosida shakllanadi va doimo o'zgarib turadi.

M. Hellinger va H. Motschenbacher tomonidan tahrirlangan ko'p jildli tadqiqotda ta'kidlanishicha, gender asimmetriyasining lisoniy ifodalanishi har bir tilda o'z milliy-madaniy xususiyatlariga ega bo'lib, uni faqat universal hodisa sifatida talqin qilish yetarli emas. Bu fikr o'zbek va ingliz tillari paremiologik tizimidagi gender asimmetriyasini qiyosiy o'rganishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA GENDER ASIMMETRIYASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

O'zbek maqollarida ayol konsepti jamoaviy madaniyat, an'anaviy oilaviy tuzum va islomiy qadriyatlar asosida shakllangan. M. Sodiqova o'z tadqiqotida ko'rsatganidek, o'zbek paremiyalarida ayol obrazi asosan «ona», «xotin», «kelin» rollari orqali lisoniy tasvirlanadi va uning ijtimoiy qimmati aksariyat hollarda shu rollarni qanchalik mukammal bajarishiga bog'liq qilib belgilanadi. Masalan, «*Onasi yaxshi — qizi yaxshi*» maqolida ayolning shaxsiy fazilatlarini to'g'ridan-to'g'ri uning oilaviy-nasabiy ildiziga bog'lab ko'rsatiladi. Sh. Safarov pragmalingsvistik tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, bunday paremiologik birliklar nutqiy xulq-atvorni ijtimoiy jihatdan normallashtiruvchi pragmatik vosita bo'lib xizmat qiladi. «*Ayolning tili — azobi*» kabi maqollarda ayolning nutqiy faolligini salbiy baholash madaniy jihatdan mustahkamlanadi, va bu o'zbek milliy mentalitetidagi an'anaviy gender munosabatlarini to'liq aks ettiradi.

Erkak konsepti o'zbek maqollarida ham juda xarakterli tarzda gavdalanadi. U «oila boshlig'i», «nomus egasi», «nasab davomchisi» sifatida tasvirlanib, unga qo'yiladigan ijtimoiy talablar juda baland. «*Er boshda toj, xotin oyoqda kovush*» maqoli erkak va ayolning ierarxik munosabatining tipik o'zbek paremiologik konstruksiyasidir.

INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA GENDER ASIMMETRIYASINING MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGI

Ingliz paremiologik tizimida gender asimmetriyasi o'zbek tizimidan tamomila farqli madaniy-tarixiy kontekstda shakllangan. R. Lakoff ta'kidlaganidek, g'arb madaniyatida ayolning lingvistik ifodalanishi uzoq tarixiy jarayon cherkov aqidasi, huquqiy diskriminatsiya va romantik adabiyot ta'siridagi «murakkab irsiyat»ning mahsulidir. Aynan shu sababli ingliz maqollarida ayol obrazi ikki qarama-qarshi qutbda gavdalanadi: «*A good wife makes a good husband*» (Yaxshi xotin yaxshi er qiladi) kabi maqollar erkakning muvaffaqiyatini ayolga bog'lasa, «*A woman's tongue wags like a lamb's tail*» kabi maqollar ayolning nutqiy faolligini hayvoniy metafora orqali kamsitadi.

O'zbek maqollaridan farqli ravishda, ingliz paremiyalarida erkak obrazi ko'proq individualistik qadriyatlar shaxsiy erkinlik, mulkchilik va avtonomiya bilan bog'liq tarzda ifodalanadi. O.Q. Yusupovning chog'ishtirma tilshunoslik tamoyillariga ko'ra, bunday farqlar ikki xalqning madaniy-tarixiy rivojlanish yo'llarining turlicha ekanligi bilan belgilanadi.

G.S. Komolova ingliz va o'zbek tillaridagi gender muammosiga bag'ishlangan qiyosiy tadqiqotida ingliz maqollarida ayol nutqiga nisbatan salbiy munosabatning o'zbek maqollariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri va ochiqroq ifodalanishini qayd etadi. «*Many women, many words; many geese, many turds*» kabi iboralar ingliz paremiologik tizimida ayol nutqining qo'pol va salbiy tarzda tasvirlanishiga misol bo'ladi.

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA GENDER ASIMMETRIYASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

N. Vohidovanning tadqiqotiga ko'ra, o'zbek va ingliz maqollarida gender asimmetriyasining lisoniy ifodalanishida bir qator universal xususiyatlar mavjud bo'lib, ular gender lingvistikasining umumbashariy qonuniyatlariga mos keladi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlangan umumiy va farqli xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har ikki tizimda ham androsentrizm erkakni norma, ayolni esa bu normadan chetlanish sifatida ko'rsatish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. «*Erkak yo'lning boshi, xotin yo'lning oxiri*» (o'zbek) va «*Man is the head, but woman turns it*» (ingliz) maqollari bu umumiylikni ko'rsatadi: har ikki holda ham erkak birlamchi, ayol esa ikkilamchi mavqeda tasvirlanadi.

Ikkinchidan, ayolning nutqiy faolligini kamsitish motivi har ikki paremiologik tizimda ham keng tarqalgan: o'zbek tizimida «*Ayolning tili azobi*», ingliz tizimida «*A silent woman is a gift from God*» kabi maqollar bir xil pragmatik funksiyani ayolning nutqiy sukunatini normallashtirish funksiyasini bajaradi.

Uchinchidan, milliy-madaniy farqlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: o'zbek maqollarida gender stereotiplari ko'proq oilaviy-jamoaviy munosabatlar, shajara va nomus tushunchalari orqali ifodalanadi; ingliz maqollarida esa gender stereotiplari individual mulkchilik, shaxsiy avtonomiya va huquqiy munosabatlar kontekstida shakllanadi.

XULOSA

O'zbek va ingliz xalq maqollarida gender asimmetriyasining lingvokulturologik ifodalanishini va milliy-madaniy o'ziga xosligini qiyosiy tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, gender asimmetriyasi har ikki paremiologik tizimda ham mavjud bo'lib, androsentrik dunyoqarash, ayol nutqiy faolligini kamsitish va erkakni ijtimoiy-aktiv subyekt sifatida gavalantirish tendensiyasi universal lingvokulturologik hodisa sifatida tasdiqlanadi.

Ikkinchidan, o'zbek maqollarida gender asimmetriyasi jamoaviy mentalitet, nasab tizimi, oilaviy iyerarxiya va an'anaviy islomiy qadriyatlar zaminida shakllanib, ko'proq bilvosita majoziy va metaforik ko'chimlar orqali ifodalanadi. Ingliz maqollarida esa individualistik

madaniyat, mulkchilik huquqi va shaxsiy avtonomiya asosidagi gender konstruktleri to'g'ridan-to'g'ri va ochiq tarzda gavdalanadi.

*Uchinchi*dan, lingvokulturologik tahlil ko'rsatadiki, maqollardagi gender stereotiplari bu shunchaki eskirgan badiiy shakllar emas, balki til orqali doimo takror ishlab chiqariladigan va jamiyat ongiga singdirilgan madaniy kodlar tizimining bir qismidir..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maslova V.A. Lingvokul'turologiya: ucheb. posobiye dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.
2. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty. – Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kul'tury», 1996. – 288 s.
3. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 282 p.
4. Vorkachev S.G. Kul'turnyy konsept i znachenije // Trudy Kubanskogo gosudarstvennogo tekhnologicheskogo universiteta. Ser. gumanitarnyykh nauk. – 2003. – T. 17, vyp. 2. – S. 268–276.
5. Hellinger M., Motschenbacher H. (Eds.). Gender across Languages: The Linguistic Representation of Women and Men. Vol. 4. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2015. – 348 p.
6. Sodiqova M. O'zbek paremiyalarida ayol va erkak konseptlarining lingvokulturologik tahlili // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари. – 2021. – №3(1). – B. 154–160.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 272 b.
8. Lakoff R.T. Language and Woman's Place: Text and Commentaries. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 304 p.
9. Yusupov O.Q. Chog'ishtirma tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 184 b.
10. Komolova G.S. Ingliz va o'zbek tillarida gender masalasi: tilshunoslik, leksik-semantik tizim va grammatik struktura // Obrazovanie i nauka v XXI veke. – 2025. – №12(3). – S. 112–118.
11. Vohidova N. Ingliz va o'zbek maqollarida gender asimmetriyasining qiyosiy tahlili // Foreign Languages in Uzbekistan. – 2023. – №2(44). – B. 30–38.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA WEB-KVEST TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI: BIOLOGIYA FANIDA TAJRIBA

Salimova Sarvinoz Farxodovna - Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD).

To'xtamurodova Dilso'z Umidjon qizi - Buxoro davlat universiteti 1 bosqich magistri

Annotatsiya: Mazkur ilmiy matnda raqamli ta'lim muhitida web-kvest texnologiyasining biologiya fanini o'qitishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Web-kvest o'quvchini tayyor axborotni passiv qabul qiluvchi subyektdan muammoni izlovchi, manbalarni tahlil qiluvchi, natijani qayta ishlovchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi faol ishtirokchiga aylantiradigan texnologiya sifatida qaraladi. Tadqiqotning maqsadi biologiya darslarida web-kvest asosidagi o'qitish modelining o'quvchilarning bilim darajasi, mantiqiy bog'lanishlarni tushunishi, tizimli fikrlashi va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ishda kvazi-eksperimental yondashuvdan foydalanilib, tajriba va nazorat guruhleri o'rtasidagi natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar web-kvest asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar biologik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirish, axborotni tanlash va qayta ishlash, guruhda hamkorlik qilish hamda muammoni kompleks ko'rish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Tadqiqot xulosalari biologiya ta'limini raqamli transformatsiya qilish sharoitida web-kvest texnologiyasining amaliy